

SPECIALIZED TRANSLATION: THEORY AND LINGUODIDACTIC PRINCIPLES OF TEACHING

Khilolakhon Botiraliyevna BAKIROVA

PhD in Pedagogical Sciences, Acting Associate Professor
Department of Practical English Translation
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan

SOHAVIY TARJIMAGA O'QITISHINING NAZARIY VA LINGVODIDAKTIK TAMOYILLARI

Xilolaxon Botiraliyevna BAKIROVA

Ped. f.f.d. (PhD), v.b. dotsent
Ingliz tili amaliy tarjima kafedrası
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Tashkent, Uzbekistan

СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫЙ ПЕРЕВОД: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ЕГО ПРЕПОДАВАНИЯ

Хилолахон Ботиралиевна БАКИРОВА

Доктор философии по педагогическим наукам (PhD), и.о. доцента
Кафедра практического английского перевода
Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан ms.khilola@bk.ru

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Bakirova X.B. Sohaviy tarjimaga o'qitishining nazariy va lingvodidaktik tamoyillari.// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 5. — B. 151-171.

<https://doi.org/10.36078/1762330515>

Received: August 16, 2025

Accepted: October 17, 2025

Published: October 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Abstract. In today's context, the speed of information exchange in fields such as medicine, law, engineering and IT demands of translators not only general linguistic competence but also domain knowledge, terminological precision and context management skills. Therefore, the teaching of specialized translation should be grounded in a model that integrates linguodidactic foundations, a functional-pragmatic approach and technological preparedness. The aim of this study is to clarify the essence of specialized translation, substantiate the linguodidactic principles of its instruction and propose a practical model for implementation in the curriculum. To achieve this aim, several tasks are addressed: systematizing the criteria of terminological precision, contextual fidelity and goal adequacy; aligning Skopos, cognitive-pragmatic and competence-based approaches with the instructional model; demonstrating the role of CAT tools, corpora and term banks in training; mapping progressive competences based on the PACTE model; and proposing course design and assessment criteria for higher education. Methodologically, the article employs

a descriptive-analytical design that includes analysis of theoretical sources, expert evaluation of students' written translations of specialized texts, classroom observations, coding of terminological errors and functional adequacy, and an experimental component using CAT and corpus tools. The findings show that the most frequent errors cluster around terminological consistency and contextual alignment. Integrating CAT and corpus resources into instruction increased consistency and reduced time expenditure. Skopos-driven tasks improved audience-appropriate stylistic choices. Stage-based training aligned with PACTE framework effectively activated strategic competence. Moreover, when the teacher's role shifted from controller to facilitator, learning outcomes improved and became more consistent. The effectiveness of teaching specialized translation rests on five pillars: professional orientation, a terminological approach, contextual grounding, technological preparedness and stepwise competence development. Implementing these principles through curricula, assessment rubrics and portfolios based on real tasks substantially increases the functional adequacy of translations.

Keywords: specialized translation; linguodidactics; Skopos; PACTE; terminology; CAT; corpus; functional adequacy; strategic competence.

Annotatsiya. Bugungi zamonaviy sharoitda tibbiyot, huquq, texnika va IT kabi sohalarida axborot almashinuvi tezligi tarjimonlardan umumtil kompetensiyasidan tashqari sohaviy bilim, terminologik aniqlik va kontekstni boshqarish ko'nikmalarini talab qiladi. Sohaviy tarjima ta'limi shuning uchun lingvodidaktik asoslar, funksional-pragmatik yondashuv va texnologik tayyorgarlikni integratsiya qilgan modelga tayanishi kerak. Mazkur maqolaning maqsadi sohaviy tarjima tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlash, uni o'qitishning lingvodidaktik tamoyillarini asoslash hamda o'quv jarayoniga joriy etish uchun amaliy model taklif qilishdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun bir qator vazifalarni tahlil qilish taqozo etiladi. Jumladan, terminologik aniqlik, kontekstga sodiqlik va maqsadga muvofiqlik mezonlarini tizimlashtirish; skopos, kognitiv-pragmatik va kompetensiyaviy yondashuvlarni ta'lim modeli bilan uyg'unlashtirish; CAT vositalari, korpus va terminobanklardan foydalanishning o'quvdagi rolini ko'rsatish; PACTE modeli asosida bosqichma-bosqich kompetensiyalarni xaritalash; oliy ta'lim sharoitida kurs dizayni va baholash mezonlarini taklif etish. Mazkur maqolaning metodologik asosini deskriptiv-analitik tadqiqot: nazariy manbalarni tahlil qilish; sohaviy

matnlar bo'yicha talabalarning yozma tarjimalarini ekspert baholash; dars kuzatuvlari; terminologik xatolar va funksional moslik bo'yicha kodlash; CAT/korpus vositalari bilan tajriba elementi tashkil etadi. Ilmiy tadqiqot ishi **natijalari quyidagilarni tashkil etadi**: eng ko'p xatolar terminologik izchillik va kontekstual moslikda to'plandi. CAT va korpus resurslarini darsga kiritish izchillikni oshirdi, vaqtni qisqartirdi. Skoposga tayangan topshiriqlar auditoriyaga mos uslubiy tanlovlarni yaxshiladi. PACTE bo'yicha bosqichli mashg'ulotlar strategik kompetensiyani faollashtirdi. Shuningdek, o'qituvchi roli "nazoratchi"dan "fasilitator"ga siljiganda natija barqarorlashdi. Demak, sohaviy tarjima o'qitish samaradorligi besh omilga tayanadi: kasbiy yo'naltirilganlik, terminologik yondashuv, kontekstual asoslanganlik, texnologik tayyorgarlik va bosqichma-bosqich kompetensiyaviy rivojlanish. Ushbu tamoyillarni o'quv dasturi, baholash rubrikalari va real vazifalarga asoslangan portfoliolar orqali tatbiq etish tarjimaning funksional yaroqliligini sezilarli oshiradi.

Kalit so'zlar: sohaviy tarjima; lingvodidaktika; Skopos; PACTE; terminologiya; CAT; korpus; funksional moslik; strategik kompetensiya.

Аннотация. В современных условиях скорость обмена информацией в таких сферах, как медицина, право, техника и ИТ, требует от переводчиков помимо общей языковой компетенции также отраслевых знаний, терминологической точности и умений управлять контекстом. Поэтому обучение специализированному переводу должно опираться на модель, интегрирующую лингводидактические основы, функционально-прагматический подход и технологическую готовность. Цель исследования состоит в уточнении сущности специализированного перевода, обосновании лингводидактических принципов его преподавания и предложении практической модели для внедрения в учебный процесс. Для достижения цели решаются задачи: систематизировать критерии терминологической точности, контекстуальной верности и целевой уместности; соотнести подходы Скопоса, когнитивно-прагматический и компетентностный с учебной моделью; показать роль САТ-инструментов, корпусов и терминобанков в подготовке студентов; построить поэтапную карту компетенций на основе модели РАСТЕ; предложить дизайн курса и критерии оценивания для высшей школы. Методологически статья базируется на дескриптивно-аналитическом

подходе. Результаты показывают, что наибольшее число ошибок связано с терминологической последовательностью и контекстуальным соответствием. Интеграция САТ и корпусных ресурсов в обучение повысила последовательность и сократила временные затраты. Задания, основанные на принципах Скопоса, улучшили стилистический выбор с учетом адресата. Поэтапная подготовка в логике РАСТЕ активизировала стратегическую компетенцию. Кроме того, переход роли преподавателя от «контролера» к «фасилитатору» стабилизировал результаты. Эффективность обучения специализированному переводу опирается на пять опор: профессиональную направленность, терминологический подход, контекстуальную обусловленность, технологическую готовность и поэтапное развитие компетенций. Реализация этих принципов через учебные программы, оценочные рубрики и портфолио, основанные на реальных заданиях, существенно повышает функциональную адекватность перевода.

Ключевые слова: специализированный перевод; лингводидактика; Скопос; РАСТЕ; терминология; САТ; корпус; функциональная адекватность; стратегическая компетенция.

Kirish

Jahonda chet tillarni o'qitish tajribasida sohaviy tarjimonlarni tayyorlash jarayonida bir qator samarali yondashuv va metodlar shakllangan bo'lib, ular bugungi kunda lingvodidaktik tadqiqotlarda alohida o'rin tutadi. Avvalo, **kommunikativ yondashuv** tilni nazariy qoidalar majmuasi sifatida emas, balki real muloqot vositasi sifatida o'rgatishga asoslanadi. Ushbu yondashuv sohaviy tarjimonlar tayyorlashda talabalarning kasbiy terminologiya asosida samarali muloqot olib borishini ta'minlaydi. Keyingi yillarda jahon tajribasida samaradorligi yuqori bo'lgan yondashuvlardan biri bu **CLIL (Content and Language Integrated Learning)** bo'lib, u mazmun va til integratsiyasiga asoslanadi. Mazkur yondashuvda talabalar sohaga oid ilmiy matnlar bilan ishlash jarayonida nafaqat mutaxassislik bilimlarini, balki chet tilini ham chuqur o'zlashtiradilar. Shu bilan birga, **korpus va ma'lumotga asoslangan o'qitish (Corpus-based, Data-driven Learning)** metodlari ham samarali hisoblanadi. Bu jarayonda o'quvchilar lingvistik korpuslar, terminologik bazalar va onlayn axborot resurslaridan foydalanib, leksik minimumni tizimli ravishda o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar. Hozirgi davrda keng tarqalgan **aralash o'qitish (Blended Learning)** modeli ham sohaviy tarjimonlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu model an'anaviy auditoriya mashg'ulotlari bilan bir qatorda raqamli platformalar (Moodle, Coursera) va tarjimani qo'llab-quvvatlovchi dasturlar (SDL Trados, MemoQ, Wordfast)dan foydalanishga imkon beradi. Shu bilan

birga, **loyiha va muammo asosidagi o'qitish (Project-based va Problem-based Learning)** metodlari real hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, tanqidiy va ijodiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Yana bir muhim yo'nalish — **hamkorlikda o'qitish (Collaborative Learning)** bo'lib, u tarjima jarayonida jamoaviy ishlash, guruhli muhokama va o'zaro baholash tamoyillariga asoslanadi. Bunday yondashuv talabalarni professional muloqot madaniyatiga tayyorlaydi. Nihoyat, **axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan yondashuv (ICT-based Learning)** global ta'limda keng qo'llanilmoqda. Onlayn lug'atlar, terminologik bazalar, CAT-tools dasturlari orqali chet tillarini o'qitish sohaviy tarjimonlarni tayyorlashda zamonaviy talablarga javob beradi.

So'nggi yillarda globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari natijasida ilm-fan, texnika, tibbiyot, huquq, iqtisod va boshqa sohalarda sohaviy tarjima xizmatlariga bo'lgan ehtiyoj keskin oshdi. Bu esa tarjimonlarning nafaqat lingvistik bilimlarga, balki zamonaviy axborot-resurslardan samarali foydalanish kompetensiyasiga ham ega bo'lishini talab etadi. Jahon tajribasida sohaviy tarjimonlarni tayyorlashda kommunikativ, vazifa asosida, CLIL, korpusga asoslangan, aralash va loyiha asosidagi metodlar, shuningdek, axborot resurslariga tayangan texnologik yondashuvlar o'zining samaradorligi bilan ajralib turadi. Xususan, korpus lingvistikasi, terminologik bazalar, avtomatlashtirilgan tarjima vositalari (CAT-tools), onlayn platformalar tarjima jarayonining ajralmas vositalariga aylangan. Ushbu o'zgarishlar sharoitida sohaviy tarjimonlarni tayyorlash jarayoniga lingvodidaktik jihatdan yangicha yondashuv zarurati tug'ilmoqda. Bu esa axborot resurslariga tayangan holda tarjima kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy didaktik modelni ishlab chiqishni talab qiladi. Shu jihatdan kompetensiyaga asoslangan integrativ yondashuv orqali o'quv amaliyotida interaktiv uslublar va raqamli platformalarni integratsiyalashgan holda qo'llash orqali sohaviy tarjimonlarni axborot resurslari asosida tayyorlashda dolzarb ahamiyat kasb etishini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Dunyoda sohaviy tarjimonlarni axborot resurslari asosida tayyorlash asoslari zamonaviy til o'qitish metodlari va jahon amaliyotidagi ilg'or tajribalar bilan uzviy bog'liqdir. Bugungi globallashuv sharoitida sohaga oid tarjimonlarni tayyorlash jarayonida chet el oliy ta'lim muassasalarida keng qo'llanilayotgan yondashuv va metodlar alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, Ispaniyaning Granada Universitetida (Facultad de Traducción e Interpretación) sohaga oid tarjimalar texnik, yuridik, audiovizual va boshqa yo'nalishlarda maxsuslashtirilgan magistratura dasturlari joriy etilgan. U yerda talabalar nazariy bilimlar bilan bir qatorda terminologik baza va CAT dasturlaridan foydalanish orqali malaka oshiradilar. Gollandiya Zuyd University of Applied Sciences tarkibidagi Maastricht School of Translation and Interpretingda esa amaliyotga yo'naltirilgan, sohaga oid tarjima va subtitrlash bo'yicha maxsus kurslar tashkil etilgan bo'lib, talabalar interaktiv mashg'ulotlar hamda real sanoat buyurtmalari asosida kompetensiyalarini rivojlantiradilar. Shvetsariyaning Jeneva Universitetining Tarjima va Interpretatsiya fakulteti esa dunyodagi eng

qadimgi tarjimon tayyorlash markazlaridan bo'lib, CAT vositalari, terminologiya bazalari va lingvistik tadqiqotlarga asoslangan kompleks ta'lim modelini qo'llaydi. Irlandiyaning Dublin City University (DCU) qoshidagi tarjima bo'yicha magistratura dasturi Yevropa Komissiyasi tomonidan EMT (European Master's in Translation) sifatida sertifikatlangan bo'lib, bu dasturda talabalar kompetensiyaga asoslangan yondashuv, CAT texnologiyalari va nazorat-kuzatuv mexanizmlarida chuqur bilim oladilar. AQShdagi New York University (NYU SPS)da esa tarjima va interpretatsiya bo'yicha magistratura kurslari to'liq onlayn formatda tashkil etilib, sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan tarjima texnologiyalari, interaktiv platformalar orqali talabalar zamonaviy raqamli muhitda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Mazkur xorijiy tajribalar sohaga oid tarjimonlarni tayyorlashda kompetensiyaga asoslangan, interaktiv va texnologiyalarga yo'naltirilgan yondashuvlarning dolzarbligini yaqqol namoyon qiladi. Shu bilan birga, bizning yondashuvimiz "Kompetensiyaga asoslangan integrativ yondashuv asosida o'quv amaliyotida interaktiv uslublar va raqamli platformalarni integratsiyalashgan holda sohaviy tarjimonlarni axborot resurslari asosida tayyorlash" mazkur ilmiy tadqiqotning dolzarb va amaliy ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Respublikamizda sohaviy tarjimonlarni axborot resurslari asosida tayyorlash masalasi alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv va xalqaro integratsiya jarayonlarida O'zbekistonda energetika, tibbiyot, huquq, axborot texnologiyalari, sanoat kabi sohalarga ixtisoslashgan tarjimonlarga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Tarjima ta'limida ham axborot resurslaridan, jumladan, korpuslar, terminologik bazalar, onlayn lug'atlar, tarjima dasturlaridan foydalanish ilmiy-metodik asoslashga muhtoj. Sohaviy tarjimonlarni tayyorlashning lingvodidaktik asoslarini ishlab chiqish bu yo'nalishdagi bo'shliqni to'ldiradi. Respublikamizda ko'proq umumiy tilshunoslik, adabiy tarjima va lingvistik tadqiqotlar rivojlangan bo'lsa-da, sohaga oid tarjima ta'limining lingvodidaktik asoslari yetarlicha o'rganilmagan. Mazkur tadqiqotda esa kompetensiyaga asoslangan integrativ yondashuv asosida sohaga oid tarjimonlarni tayyorlashda interaktiv uslublar va raqamli platformalarni integratsiyalashgan holda qo'llash dolzarb metod sifatida asoslab beriladi. Sohaviy tarjimonlarni tayyorlash nafaqat xalqaro aloqalarni rivojlantirishda, balki xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, ilmiy-texnik hamkorlikni kuchaytirishda ham bevosita ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan mazkur mavzu bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida yuqori samaradorlikka ega bo'lib, milliy ta'lim tizimida sohaga oid tarjimonlarni tayyorlashning yangi bosqichini boshlab beradi.

O'zbekiston Respublikasining qonunlarida, Prezident qarorlari va farmonlarida chet tillarini o'qitishda amaliy natijadorlik talab etilishi, ayniqsa, sohaga oid tarjimonlarni tayyorlashni kun tartibiga olib chiqmoqda. Respublikamizda "Elektron hukumat to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni [O'RQ' 2015] va "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-

oktyabrdagi PF-6079-son Farmoni [PF-6079-son] kabi strategik dasturlar asosida barcha sohalarda raqamli resurslardan foydalanish kengaymoqda.

Sohaviy tarjimonlarni axborot resurslari asosida tayyorlash jarayoni O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va qabul qilinayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan bevosita bog'liqdir. So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimini raqamlashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda mutaxassislarni xalqaro standartlarga mos tayyorlash borasida muhim huquqiy baza yaratildi.

2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son Farmon bilan "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi tasdiqlanib, unda ta'lim sohasida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish, interaktiv uslublar va raqamli platformalar asosida kadrlar tayyorlash dolzarb vazifa sifatida belgilandi [PF-6079-son]. Ushbu strategiya sohaviy tarjimonlarni tayyorlashda ham axborot resurslari va lingvodidaktik imkoniyatlardan samarali foydalanishga keng yo'l ochadi.

Bundan tashqari, 2015-yil 17-dekabrdagi 365-son qaror bilan "Elektron hukumat tizimi markaziy ma'lumotlar bazalari tashkiloti tartibi to'g'risida"gi nizom qabul qilindi. Unga ko'ra, jismoniy va yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari hamda yagona identifikatsiya tizimining yaratilishi belgilandi [O'R VMQ 365-son]. Mazkur hujjat tarjimonlarni tayyorlash jarayonida ham axborot bazalaridan foydalanish va ularni ta'limiy jarayonlarga tatbiq etish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, 2022-yil 29-yanvardagi PF-61-son Farmon bilan "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasining yo'l xaritalari yangilandi va ta'lim tizimidagi raqamlashtirish jarayonlari uchun aniq muddat va mexanizmlar belgilandi. Bu esa sohaviy tarjimonlarni tayyorlashda zamonaviy o'quv platformalari, onlayn kutubxonalar va elektron resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi [PF-61-son].

Yana bir muhim hujjat 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmon bo'lib, unda "O'zbekiston — 2030" strategiyasining monitoring va nazorat mexanizmlari ishlab chiqildi. Mazkur hujjat doirasida ta'lim tizimida belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishish, natijalarni tizimli monitoring qilish va yangi o'quv-uslubiy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari mustahkamlandi [O'R PF-37-son].

Shuningdek, 2024-yil 20-sentyabrdagi O'RQ-964-son qonun davlat organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonini tartibga soldi [O'RQ-964-son]. Bu hujjat sohaga oid tarjimonlarni muntazam ravishda qayta tayyorlash va malakasini oshirish zaruriyatini huquqiy jihatdan mustahkamladi. Yuqorida qayd etilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar O'zbekistonda ta'limni raqamlashtirish, zamonaviy axborot resurslarini joriy etish va malakali kadrlar tayyorlash yo'lidagi asosiy poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur huquqiy asoslar sohaviy tarjimonlarni axborot resurslari asosida tayyorlash jarayonining dolzarbligini, uni davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanayotganini va milliy ta'lim tizimida muhim o'rin tutishini isbotlaydi.

Hozirgi davrimizning globalashuv jarayonlari, xalqaro iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarning kengayishi bugungi kunda tarjima

faoliyatiga yangi talablarga moslashishni taqozo qilmoqda. Ayniqsa, tibbiyot, huquq, texnika, axborot texnologiyasi va iqtisod sohalarida axborot almashinuvi tezligi va sifati bevosita sohaviy tarjimonlar salohiyatiga bog'liq bo'lib qoldi. Shu sababli zamonaviy tarjima nazariyasi va amaliyotida sohaviy tarjima alohida mustaqil yo'nalish sifatida shakllandi.

Xalqaro tarjima tadqiqotchisi M. T. Cabré ta'rifiga ko'ra, "Sohaviy tarjima — maxsus sohalarga oid konseptual tizimlarni tilda aks ettirish va ular o'rtasida funksional moslikni ta'minlash san'atidir". Olimning ta'kidlashicha: "Sohaviy tarjima — muayyan kasbiy yoki ilmiy soha doirasida yozilgan matnlarni bir til tizimdan ikkinchisiga uzatish jarayoni bo'lib, u faqat lingvistik emas, balki terminologik, mantiqiy, funksional va madaniy tafovutlarni inobatga olgan holda amalga oshiriladi". Zamonaviy tarjima tadqiqotlarida sohaviy tarjima "specialized translation", "technical translation", "LSP translation" (Language for Specific Purposes) nomlari bilan yondashiladi [Cabré 1999].

Sohaviy tarjima — maxsus matnlar bilan ishlashda yuqori darajadagi lingvistik, madaniy va kasbiy kompetensiyalarni talab qiluvchi faoliyat bo'lib, u umumiy adabiy tarjimadan tubdan farq qiladi. Ushbu yo'nalishda ishlovchi tarjimon nafaqat til kodlarini almashtiradi, balki terminologik aniqlik, janrga xoslik, funksional to'g'rilik, hamda auditoriyaga yo'naltirilganlik kabi mezonlarga asoslanadi [Byrne 2006].

Tarjima didaktikasida sohaviy matnlar bilan ishlash bo'yicha yondashuvlar ham tobora takomillashmoqda. Chunki umumiy til bilimiga ega bo'lgan o'quvchi, muayyan soha matnini to'g'ri tarjima qila olmasligi mumkin. Masalan, yuridik matnlar, farmatsevtik tavsiflar yoki texnik hujjatlar o'ziga xos terminlar tizimi, matn strukturalari va funksional yuklamalarga ega. Shuning uchun bu yo'nalishda o'qitish strategiyasi ham o'ziga xos bo'lishi kerak, ya'ni lingvodidaktik asoslangan, kasbiy yo'naltirilgan va kompetensiyaviy model zarur [Montalt 2014].

Bugungi kun tarjimonini tayyorlashda asosiy muammo faqat til emas, balki soha bilimlarini ham berish zarurati. Sohaviy tarjima darslari o'z ichiga quyidagilarni olishi kerak:

- soha terminologiyasi va uning tarjima strategiyalari;
- matnning funksional-pragmatik tahlili;
- axborotni izlash, qayta ishlash va texnologik vositalardan foydalanish;
- real hayotga yaqin kommunikativ vazifalar asosida mashqlar.

D.Gile o'z tadqiqotida ta'kidlaydiki: "Sohaviy tarjima — tarjimon bilimlarining va intellektual resurslarining sinov maydonidir; u faqat til emas, balki bilimlararo kompetensiyani talab qiladi" [Gile D 2009: 56].

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, sohaviy tarjima zamonaviy tarjima ta'limining eng strategik jihatlarini qamrab oluvchi yo'nalish bo'lib, uning o'qitilishi maxsus metodik tamoyillar asosida tashkil etilishi talab etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot deskriptiv-analitik usulda amalga oshirildi. Material sifatida tarjima yo'nalishida tahsil olayotgan 3-4-bosqich talabalarining

yo'zma tarjimalari hamda o'quv dasturlari tahlil qilindi. Tahlil quyidagi bosqichlarda olib borildi:

1. Nazariy tahlil: sohaviy tarjima haqidagi ilmiy manbalar [Hatim & Mason, 1997; Newmark, 1988; Nord, 2005] o'rganildi.
2. Metodik kuzatuv: tarjima mashg'ulotlarida o'qituvchi va talaba faoliyati kuzatilib, o'qitish strategiyalari baholandi.
3. Til darajasidagi tahlil: sohaviy matnlarda uchraydigan terminlar, so'z birikmalari va sintaktik modellari aniqlanib, ularning tarjima usullari tasniflandi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- Tarjima sohasidagi axborot texnologiyalarining integratsiyasi tarjimonlarning professional tayyorgarlik mezonlarini o'zgartirmoqda.
- Oliy ta'lim tizimi uchun samarali, axborot resurslariga tayangan o'quv modullarini ishlab chiqish zarurati mavjud.
- Sohaviy tarjima bo'yicha axborot resurslari bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirishga oid yetarlicha tizimli lingvodidaktik tadqiqotlar mavjud emas.
- Soha bo'yicha mavjud metodikalar klassik uslublarga asoslangan bo'lib, yangi texnologiyalar yetarli darajada integratsiyalashmagan.

Shu bois, ushbu mavzu bugungi kunda nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb bo'lib, tarjima ta'limining modernizatsiyasi uchun lingvodidaktik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ushbu tadqiqot orqali tarjima ta'limining yangi bosqichiga – axborot texnologiyalari va lingvodidaktika sinteziga asoslangan o'qitish modeliga asos solinadi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida tarjimon kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilishga xizmat qiladi.

Sohaviy tarjimonlarni tayyorlash masalasi jahon ilmiy-amaliy doirasida keng ko'lamda tadqiq etilgan. Jumladan, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi mamlakatlarda tarjima pedagogikasiga oid ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ularda tarjima jarayonida kompetensiyaviy yondashuv, madaniyatlararo kommunikatsiya, zamonaviy raqamli resurslardan foydalanish kabi tamoyillar asosiy metodik poydevor sifatida qaratiladi. Masalan, D. Kelly, A. Hurtado Albir, H. Pöchhacker kabi olimlarning ishlarida tarjimonlarni tayyorlashda til ko'nikmalarini kasbiy faoliyat bilan integratsiyalash metodlari chuqur yoritilgan.

MDH davlatlari tajribasida ham sohaga oid izlanishlar muhim o'rin tutadi. Xususan, Rossiya, Qozog'iston va Belarus ilmiy maktablarida lingvodidaktika, kasbiy yo'naltirilgan tarjima va axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalari bo'yicha samarali tadqiqotlar olib borilgan. Rossiyalik olimlar A. D. Shveytser, V. N. Komissarov, L.K. Latyshevlar tarjima nazariyasi va tarjimonlarni tayyorlash metodologiyasini ilmiy jihatdan asoslab bergan bo'lsalar, Qozog'istonda chet tillarini o'qitishda sohaviy yo'nalishlarni joriy etish bo'yicha lingvodidaktik ishlanmalar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda mustaqillik yillaridan boshlab tarjima nazariyasi va amaliyoti masalalari alohida e'tibor qozondi. Jumladan, professor Sh.Shukurov, A. Nurmonov, B.Yo'ldoshev, H.Rustamov kabi olimlarning ishlarida tarjima jarayonining nazariy hamda metodik jihatlari yoritilgan.

So‘nggi yillarda sohaga oid ilmiy izlanishlar til ta‘limida axborot resurslaridan foydalanish, elektron lug‘atlar va korpus lingvistikasi, kasbiy yo‘naltirilgan tarjima mashqlarini yaratish kabi masalalarga qaratilmoqda. Bu borada respublikamiz oliy ta‘lim muassasalarida sohaga ixtisoslashgan ilmiy ishlar olib borilmoqda, xususan, tarjima fakultetlari va xorijiy tillar kafedralarida maxsus kurslar joriy qilinmoqda. Mazkur tadqiqot mavzusi bo‘yicha jahonda, MDH davlatlarida va respublikamiz miqyosida olib borilgan tadqiqotlar sohaga oid nazariy-metodik poydevorni shakllantirgan bo‘lsa-da, sohaviy tarjimonlarni axborot resurslari asosida tayyorlashning lingvodidaktik asoslari hali ham yangicha yondashuvni talab qiladigan dolzarb yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

Tahlil va natijalar

O‘zbekistonda ham sohaviy tarjima masalalari bilan shug‘ullanayotgan bir qator olimlar tilshunoslik, tarjima nazariyasi, lingvodidaktika, terminologiya va madaniyatlararo kommunikatsiya yo‘nalishlarida tadqiqot olib bormoqdalar. Ularning ishlari zamonaviy tarjima ta‘limi tizimini milliy kontekstda ilmiy asoslash va takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Sh. S. Safarov sohaviy tarjimada lingvistik birliklardan ko‘ra sohaga oid bilimlar majmuasi ustuvorligini ta‘kidlab, tarjimonning kasbiy tafakkur darajasiga urg‘u beradi [Safarov 2016]. D.M. Xasanboyeva esa sohaviy tarjimonni tayyorlashda terminologik, kommunikativ va kasbiy kompetensiyalarning uzviy integratsiyasini zarur deb biladi [Xasanboyeva 2022].

Zamonaviy tarjima ta‘limida texnologik yondashuvlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, B. Elov, L. Raupova va M. Abjalova tomonidan korpus lingvistikasi va elektron resurslarning tarjima kompetensiyasini shakllantirishdagi roli tahlil qilingan [Elov 2021]. Shuningdek, S.J.Atiyazov va S.S. Jumamuratova sohaviy tarjimada interaktiv metodlar va raqamli vositalarning didaktik ahamiyatini asoslab bergan [Atiyazov 2022].

M. M. Ubaydullaeva va D. K. Vohidova esa huquqiy hamda tibbiy tarjima singari maxsus sohalarda ifoda aniqligi, terminologik standartlashtirish va kontekstga sodiqlik kabi tamoyillar ustuvor bo‘lishini ilmiy asosda isbotlaganlar [Ubaydullaeva 2015].

Olimlar tomonidan sohaviy tarjima masalalariga turli nuqtayi nazardan yondashilgan. Shunday qilib, respublikamizda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar sohaviy tarjimaning nazariy, metodik va texnologik asoslarini chuqurlashtirish bilan birga, tarjima ta‘limini zamon talablari asosida modernizatsiya qilishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqotchilarning biz tahlil qilgan ishlaridan shu ma‘lum bo‘ldiki, sohaviy tarjimaning xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Terminologik aniqlik — asosiy farqlovchi belgidir.
2. Kontekstga bog‘liqlik — har bir termin yoki ibora sohaga xos funksional yuklama bilan keladi.
3. Maqsadga muvofiqlik — matn maqsadli auditoriyaga tushunarli va relevant bo‘lishi zarur [Gile 2009].

Quyida mazkur xususiyatlar kengroq tahlil qilinadi.

1. Terminologik aniqlik – asosiy farqlovchi belgidir: terminologiya va ijtimoiy-lingvistik yondashuvlar bo'yicha yetakchi mutaxassis, Ispan (Kataloniyalik) olimasi Maria Teresa Cabréning yozishicha: “Sohaviy tarjima umumiy (badiiy yoki kundalik) tarjimadan farqli ravishda terminologik aniqlikni eng muhim mezon sifatida talab qiladi. Har bir sohaning o'ziga xos terminlar tizimi bo'lib, u ma'lum konseptual maydonga tegishli bo'lgan qat'iy belgilangan atamalar majmuasidir. Shu sababli tarjimon:

- terminlarning aniq, standart va normativ shaklini saqlashi;
- sohaviy lug'atlarga, terminologik ma'lumotnomalarga tayangan holda ishlashi;
- ekvivalentlikni shaklan emas, mazmunan ta'minlashi zarur” [Cabré 1999:45].

Olima yana shuni ta'kidlaydiki: “Termin — faqat atama emas, balki mantiqiy sistemaning birligi, uni noto'g'ri tarjima qilish butun mantiqiy struktura buzilishiga olib keladi” [Cabré 1999:45].

Maria T. Cabré tomonidan ilgari surilgan yuqoridagi konsepsiyalardan anglashiladiki, sohaviy tarjimada terminologik aniqlik — nafaqat lingvistik to'g'rilik, balki mantiqiy izchillik va konseptual yaxlitlikni saqlashning muhim omilidir. Tarjimon o'z faoliyatida atamalarni oddiy so'z sifatida emas, balki ularni belgilovchi ixtisoslashgan bilimlar tizimi doirasida anglashga majbur. Terminlarning noto'g'ri qo'llanilishi esa butun matnning funksional qadriyatini yo'qqa chiqarishi mumkin. Shu bois, tarjimon nafaqat tilni, balki sohaga oid konseptual tuzilmani ham chuqur tushunib, tarjima faoliyatini ilmiy asoslangan yondashuvlar bilan olib borishi lozim.

2. Kontekstga bog'liqlik — har bir termin yoki ibora sohaga xos funksional yuklama bilan keladi: tarjima faoliyatini kommunikativ maqsadga bog'laydigan funksionalist nazariya — Skopos nazariyasining asoschisi bo'lib tanilgan nemis olimi Hans Josef Vermeer: “Sohaviy tarjimada matn konteksti, ya'ni soha, matn janri, funksiyasi, auditoriyasi va qo'llanish muhiti — tarjimonning tanlovlarini belgilovchi omil sifatida qaraladi. Bir va ayni termin turli kontekstlarda turlicha tarjima qilinishi mumkin”, deya sohaviy tarjimada terminologik ekvivalentlikni ta'minlash jarayoni faqat lug'aviy darajadagi moslik bilan cheklanmasligini, aksincha, tarjimon har bir termin yoki iborani aniq kontekstda tahlil qilib, matnning kommunikativ funksiyasiga, auditoriyasiga va janr xususiyatlariga mos tarzda tanlay bilishi lozimligini ilgari suradi. Hans J. Vermeerning Skopos nazariyasida tarjimon passiv tarjima qiluvchi emas, balki matnning funksional maqsadini angelaydigan va unga mos strategiyalarni ishlab chiqadigan faol subyekt sifatida talqin etiladi. Bu yondashuv zamonaviy tarjima faoliyatida kontekstga asoslangan funksional yondashuvning zaruriyatini chuqur asoslab beradi [Vermeer 1989]. Masalan:

- “resolution” — texnika sohasida: aniqlik, diplomatiyada: qonun, huquqda: qaror;
- “treatment” — tibbiyotda: davolash, ekologiyada: moddani tozalash jarayoni.

Shu sababli tarjimon kontekstual tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi, matnning pragmatik maqsadini tushunib yetishi kerak. Bu Skopos

nazariyasida “function over form” tamoyili orqali ifodalanadi [Vermeer 1989].

3. Maqsadga muvofiqlik — matn maqsadli auditoriyaga tushunarli va relevant bo‘lishi zarur: “Tarjimaning sifati faqat asl matnga qanchalik sodiqligi bilan emas, balki maqsadli auditoriya uchun qanday qabul qilinishi bilan baholanadi”, deydi tarjimon va sinxron tarjimonlar tayyorlash, tarjima psixolingvistikasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan fransuz olimi Daniel Gile. Olimning yozishicha, funksionalistik yondashuvda tarjima jarayoni quyidagi savollar asosida shakllanadi:

— Kim uchun tarjima qilinyapti?


— Nima uchun tarjima qilinyapti?

— Qanday uslubda bo‘lishi kerak? [Gile 2009].

Daniel Gilening ta’kidlashicha: “Tarjima — ikki til o‘rtasida axborot uzatish emas, balki ikki madaniyat o‘rtasida funksiya transferidir” [Gile, 2009]. Masalan, texnik yo‘riqnoma oddiy foydalanuvchi uchun yozilgan bo‘lsa, tarjimon terminlarni soddalashtirishi, leksikani mahalliyashtirishi mumkin; ammo u muhandislar uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, maxsus texnik ifodalarni saqlab qoladi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib aytish mumkinki, Daniel Gile tomonidan ilgari surilgan funksionalistik yondashuv tarjima faoliyatining kommunikativ samaradorligini ta’minlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Tarjimon endilikda oddiy til vositachisi emas, balki maqsadli auditoriyaning ehtiyoj va madaniy kontekstini hisobga olgan holda, mazmun transferini amalga oshiruvchi ijtimoiy-kommunikativ mutaxassis sifatida talqin etiladi. Maqsadga muvofiqlik tamoyili tarjima sifatini yangi mezonlar asosida baholash zaruratini yuzaga chiqaradi.

Yana bir yevropalik nemis olimi, funksional-lingvistik yondashuvlar, tarjima kompetensiyasi va tarjima sifati mezonlari bo‘yicha yetakchi nazariyotchilardan biri bo‘lgan Albrecht Neubertning ta’kidlashicha: “Sohaviy tarjima — faqat til kodlarini almashtirish emas, balki soha doirasidagi ijtimoiy va kognitiv bilimlarni moslashtirishdir” [Neubert 1985: 92]. Shu bois sohaviy tarjimani o‘qitish ham oz navbatida qator tamoyillarga asoslanadi. Tarjimonni sohaviy yo‘nalishda tayyorlash umumiy til o‘rgatishdan farq qiladi va o‘ziga xos didaktik tamoyillarni talab etadi (1- rasmga qarang).

1-rasm. *Sohaviy tarjimani o‘qitishning didaktik tamoyillari*



Mazkur tamoyillarni quyida batafsil ko'rib chiqamiz.

1. Kasbiy yo'naltirilganlik tamoyili.

Ispaniyalik tarjima tadqiqotchilari Víctor Montalt Resurrecció va Maria González Daviesning ta'kidlashicha, "Professional tarjimonlarni tayyorlash jarayonida o'qitish sohaga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. O'quv materiallari kasbiy amaliyotga yaqin, real tarjima vazifalariga asoslangan, kommunikativ maqsadni qamrab oluvchi bo'lishi lozim. O'quv materiallari, tarjima topshiriqlari va amaliy mashqlar tanlanayotganda, ular maxsus sohaga moslashtirilgan bo'lishi kerak" [Montalt 2014: 21].

Sohaviy tarjima ta'limining ajralmas tamoyillaridan biri – kasbiy yo'naltirilganlik prinsipidir. Bu yondashuvga ko'ra, tarjima mashg'ulotlari davomida o'rgatilayotgan materiallar, topshiriqlar va amaliy mashqlar aniq bir soha ehtiyojlariga moslashtirilgan, kasbiy kontekstda qurilgan bo'lishi kerak. Olimlarning ta'kidlashicha, ushbu tamoyil quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

Sohaga mosligi: tibbiy, texnik, huquqiy, iqtisodiy yoki boshqa aniq sohaga oid matnlar asosida ish olib boriladi. Masalan, tibbiyot tarjimasi mashqlarida kasalliklar tasnifi, davo usullari, retsept shakllari, shifokor-bemor dialoglari tahlil qilinadi.

Professional kompetensiyaga yo'naltirish: tarjimon amaliy faoliyatda duch keladigan topshiriqlarga tayyorlanadi: terminologik bazani tuzish, kontekstual tahlil, CAT vositalaridan foydalanish, rasmiy hujjat tarjimasi, etik mezonlar.

Realistik vazifalar: mashqlar "sun'iy" emas, balki kasbiy jarayonga yaqin vaziyatlardan olinadi: mijoz talablarini tushunish, matn maqsadini aniqlash, maqsadli auditoriyaga moslashtirish.

Madaniyatlararo kompetensiya: matnlar turli madaniy kontekstlarda qanday qabul qilinishini baholash va shunga mos tarjima strategiyasini tanlash.

Mazkur prinsipning asosiy afzalliklari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'quvchini real ish bozoriga tayyorlaydi;
- sohaga oid terminologiyani faol ishlatish ko'nikmasini shakllantiradi;

— tarjimonning kasbiy identifikatsiyasini mustahkamlaydi [Montalt 2014: 21p.].

Demak, kasbiy yoʻnaltirilganlik tamoyil – sohaga ixtisoslashgan tarjimonlarni tayyorlash jarayonida muhim strategik tamoyil boʻlib, u nafaqat nazariy bilim, balki real mehnat bozori talablariga mos kompetensiyalarni shakllantirishni taʼminlaydi. Víctor Montalt va Maria Gonzálezning fikrlariga tayangan holda aytish mumkinki, bu yondashuv tarjima taʼlimini sunʼiy nazariy mashqlardan voz kechib, real kontekstga, kommunikativ ehtiyojga va kasbiy faoliyatga yaqinlashtiradi. Aynan shunday yondashuv orqali talabalar sohaga oid terminologiyani faol qoʻllash, professional kontekstda erkin harakat qilish, madaniy moslashuvchanlik va kommunikativ samaradorlikni egallaydi. Shunday ekan, kasbiy yoʻnaltirilganlik prinsipi zamonaviy lingvodidaktika va tarjima taʼlimi tizimida markaziy oʻrinni egallashi zarur.

2. Terminologik yondashuv tamoyili

Terminologik yondashuv — sohaviy tarjima nazariyasi va amaliyotida eng muhim metodologik asoslardan biri boʻlib, u tarjimonning professional faoliyatida atamalar bilan ishlash koʻnikmasini chuqur rivojlantirishga qaratilgan. Bu yondashuvga koʻra, har bir sohaviy matnning mantiqiy, strukturaviy va funksional yaxlitligi aynan terminlarning toʻgʻri qoʻllanishi orqali taʼminlanadi.

Ispaniyalik olim, terminologiya va tarjima metodikasi boʻyicha yetakchi mutaxassis Maria Teresa Cabré oʻzining mashhur asarida shunday deydi: “Terminologiya tarjima sifatining tayanch omillaridan biri boʻlib, tarjimon terminologik qoidalarni buzsa, matn funksiyasini yoʻqotadi”. Shuningdek, Maria T. Cabré oʻzining fundamental asarida terminlarni til birliklari emas, ilmiy-tizimli birliklar sifatida talqin qiladi. [Cabré 1999: 45].

Ushbu nuqtayi nazarga koʻra, tarjimon faqat til biluvchisi emas, balki terminologik tizimlarni toʻliq anglaydigan, ularni aniq, normativ shaklda uzatadigan kasbiy mutaxassis boʻlishi shart.

Terminologik yondashuvning asosiy komponentlari quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

1. Normativlik.

Tarjimon ishlayotgan sohaga tegishli rasmiy terminlar bazasi, davlat yoki xalqaro standartlar va normativ lugʻatlar bilan ishlashi lozim. Terminlar kontekstga qarab ixtiyoriy tarzda oʻzgartirilmasligi kerak.

2. Konseptual aniqlik.

Har bir termin oʻziga xos semantik maydonga ega. Uni oddiy soʻzlar bilan almashtirish yoki sinonim bilan berish, ayniqsa, texnik yoki huquqiy matnlarda mazmun buzilishiga olib keladi.

3. Korpus va terminobanklardan foydalanish.

Zamonaviy tarjima taʼlimi terminologik yondashuvni CAT tools (Computer-Assisted Translation Tools), korpus lingvistikasi, terminbanklar va ontologik platformalar orqali mustahkamlashni tavsiya etadi.

4. Tadqiqotga asoslangan tarjima.

Tarjimon noaniq, yangi yoki kam uchraydigan terminlar ustida mustaqil izlanish olib borishi, ilmiy va kasbiy manbalarga murojaat qilishi talab etiladi.

Terminologik yondashuvning amaliy afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Tarjimaning aniqligi va ishonchliligi ta'minlanadi;
- Sohaviy matnlarning funksional yaroqliligi saqlanadi;
- Kompaniya, tashkilot yoki huquqiy hujjatlarning hujjatlashtirish standarti buzilmaydi;
- Terminologik izchillik orqaligina madaniy va kasbiy xatoliklarning oldi olinadi [Cabr  1999].

Xulosa qilib aytganda, terminologik yondashuv sohaviy tarjima ta'limining nazariy va amaliy asoslarini belgilab beruvchi muhim komponentlardan biridir. Maria T. Cabr  tomonidan asoslangan ilmiy yondashuv tarjima jarayonini faqat til darajasidagi ko'chirish emas, balki konseptual, tizimli va normativ mazmunga ega jarayon sifatida baholash imkonini beradi. Tarjimonning terminlar bilan ishlashdagi aniqligi, normativlikka sodiqligi va ilmiy tadqiqotga asoslangan faoliyati matnning funksional samaradorligini belgilovchi mezon bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy tarjima muhitida CAT vositalari, terminobanklar va korpus lingvistikasi bilan ishlash ko'nikmalari ham tarjimonning kasbiy kompetensiyasiga aylangan. Shunday ekan, terminologik yondashuvni tarjima ta'limiga chuqur integratsiya qilish — sohaga yo'naltirilgan tarjimonlar tayyorlashda poydevor vazifasini bajaradi.

3. Kontekstual asoslanganlik tamoyili

Tarjima ta'limida kontekstual asoslanganlik tamoyili sohaviy tarjimani o'rgatishning asosiy metodologik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu yondashuvga ko'ra, o'quvchilarga taqdim etilayotgan matnlar va topshiriqlar hayotiy, haqiqiy kasbiy vaziyatlarga maksimal darajada yaqinlashtirilgan bo'lishi lozim. Ayniqsa, bu yondashuv sohaga oid kommunikativ holatlarni, real mijoz-talab asosida yuzaga keladigan tarjima topshiriqlarini imitatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fransuz olimi Daniel Gile bu borada shunday deydi: "Professional tarjimon tayyorlash – bu shunchaki til o'rgatish emas, balki tarjimonni haqiqiy kommunikativ muhitga tayyorlashdir. Tarjimon kontekstni tushunmasdan to'g'ri tarjima qilolmaydi, chunki har bir matn – kommunikativ voqelikning bir ko'rinishidir" — matnlar real kasbiy vaziyatlarga asoslangan bo'lishi kerak [Montalt 2014: 123].

Daniel Gile tarjima ta'limini kognitiv yuklama, kontekst, madaniyatlararo vositalanish va vazifaga yo'naltirilganlik asosida qurishni taklif etadi. U kontekstual tafakkurni tarjimon kompetensiyasining markaziy elementi sifatida ko'radi. Bunda kontekst ikki darajada tahlil qilinadi:

1. Ichki kontekst (matnning o'zi doirasida):

- matn janri, stilistikasi, muallif pozitsiyasi, funksional yuklama;
- texnik, huquqiy, tibbiy yoki boshqa sohaga tegishliligi;
- terminologik struktura va grammatika talablari.

2. Tashqi kontekst (matn yaratilgan muhit):

- soha (huquq, tibbiyot, iqtisod, IT);

- maqsadli auditoriya (muhandis, bemor, yurist, foydalanuvchi);
- madaniy kod va axloqiy me'yorlar (normativlik, uslubiy soddalik yoki murakkablik);
- kommunikativ vaziyat (yo'riqnoma, shartnoma, tibbiy ko'rsatma, reklama, rasmiy xat).

Kontekstual asoslanganlik tamoyili orqali o'rganuvchilarda quyidagi ko'nikmalar shakllanishi ko'zda tutiladi:

- matn pragmatikasini tahlil qilish;
- tarjimoni vazifaga moslashtirish;
- funksional adaptatsiyani to'g'ri qo'llash;
- madaniyatlararo tafakkurni rivojlantirish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Demak, tarjima ta'limida kontekstual asoslanganlik — bu nazariy bilimlarni real kasbiy vazifalar bilan uzviy bog'lovchi asosiy tamoyildir. Daniel Gilening yondashuvi shuni ko'rsatadiki, tarjimon nafaqat matnni tahlil qilish, balki uni yaratilgan kontekstda tushunib, funksional maqsadga mos tarjima qilish malakasiga ega bo'lishi kerak. Matnning janri, auditoriyasi, kommunikativ maqsadi va madaniy sharoiti tarjima jarayonining har bir bosqichida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bois, tarjimon nafaqat til, balki vazifa (task) va kontekst (context) bilan ishlashga o'rgatilishi kerak. Chunki tarjima — har doim “ma’noni boshqa madaniyatda mos holatda ifodalash” deganidir. Tarjima ta’limi jarayonida kontekstual tahlil ko’nikmasini shakllantirish, o’quv materiallarini real kasbiy muhitga yaqinlashtirish, topshiriqlarni kommunikativ vazifalarga asoslash orqali o’rganuvchining kasbiy kompetensiyasi izchil rivojlanadi. Bu yondashuv tarjimonda nafaqat til bilimini, balki madaniyatlararo va pragmatik tafakkurni ham shakllantirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, kontekstual asoslanganlik tarjimaning mazmuniy aniqligi, kommunikativ soddaligi va madaniy mosligini ta’minlovchi muhim didaktik tamoyil sifatida maydonga chiqadi.

4. Texnologik tayyorgarlik tamoyili.

Sohaviy tarjima ta'limida zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish — o'quv jarayonining ajralmas va dolzarb tarkibiy qismiga aylangan. Bu tamoyil tarjimonni kasbiy faoliyatga tayyorlashda texnologik savodxonlikni, ya'ni tarjima texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. Irlandiyalik tarjima metodisti Joseph Byrne “*Technical Translation: Usability Strategies for Translating Technical Documents*” nomli tadqiqotida shunday deydi: “Bugungi tarjimon CAT vositalarisiz samarali ishlay olmaydi. Chunki texnik matnlar, ayniqsa sohaviy hujjatlar, yuqori darajada izchillik va terminologik aniqlikni talab qiladi. Buni faqat avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida optimal hal qilish mumkin”. Demak olimning ta’kidlashicha, sohaviy tarjimada CAT tools, terminologik platformalar bilan ishlashni o’rgatish shart [Byrne 2006: 42].

Texnologik tayyorgarlik deganda talabalarni kompyuter yordamidagi tarjima vositalari (Computer-Assisted Translation tools — CAT tools), korpuslar, terminologik bazalar, ontologik platformalar, onlayn tarjima tizimlari bilan ishlashga yo'naltiradi. Bunday vositalar bugungi kundagi professional tarjimon ishining ajralmas qismidir.

Texnologik tayyorgarlik tamoyili quyidagi tarkibiy jihatlarni qamrab oladi:

a) CAT vositalar bilan ishlash:

— SDL Trados Studio, MemoQ, Wordfast kabi dasturlar orqali tarjimani segmentlash, tarjima xotirasini yaratish, avtomatik takrorlanishlarni aniqlash, birliklarni boshqarish o'rgatiladi.

b) Terminologik platformalardan foydalanish:

— IATE (Inter-Active Terminology for Europe), Termium, ProZ.com kabi ochiq platformalar orqali aniq, normativ atamalarni izlash, bazaga qo'shish va monitoring qilish ko'nikmalari shakllantiriladi.

c) Korpus lingvistikasi va parallel matnlar:

— Sketch Engine, AntConc kabi korpus analizatorlari orqali sohaviy uslublar va strukturalar tahlil qilinadi.

d) Texnik matnlarni ishlashda avtomatlashtirilgan nazorat:

— Stilistik, grammatik va terminologik xatolarni aniqlash uchun Grammarly, LanguageTool, QA Distiller kabi vositalar o'rgatiladi.

Texnologik tayyorgarlik tamoyili quyidagi amaliy afzalliklarga ega:

- Tarjimada aniqlik va izchillik ortadi;
- Ish tezligi va samaradorlik oshadi;
- Terminlar bazasi rivojlanadi va tarjimalar standartlashadi;
- Katta hajmdagi matnlar bilan ishlash imkoniyati kengayadi;
- O'quvchi real ish bozoriga tayyorlanadi. [Byrne 2006: 42].
- Demak, sohaviy tarjima jarayonida zamonaviy texnologik vositalarni puxta egallagan tarjimonlarga raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishi mumkin. Texnik, huquqiy, tibbiy yoki iqtisodiy matnlarni tarjima qilishda nafaqat til kompetensiyasi, balki CAT tizimlari (SDL Trados, MemoQ, Wordfast), korpus lingvistikasi, terminologik platformalar (IATE, Termium, EuroTermBank) bilan ishlash bo'yicha malaka ham muhim o'rin tutadi. Bu vositalar tarjima jarayonini avtomatlashtiradi, izchillikni ta'minlaydi, vaqt va resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Mutaxassislarning fikricha, texnologik tayyorgarlik tarjimon kasbining ajralmas elementi bo'lib, u tarjima sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, tarjima ta'limida bu yo'nalish alohida modul sifatida shakllantirilmog'i lozim. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, texnologik tayyorgarlik — zamonaviy tarjimonni shakllantirishning asosiy lingvodidaktik sharti bo'lib, u bilim, malaka va texnik vositalar bilan ishlash kompetensiyasining uyg'un integratsiyasini talab etadi.

5. Ko'p bosqichli kompetensiyaviy yondashuv.

Sohaviy tarjima ta'limi sohasida kompetensiyaviy yondashuv bugungi kunda metodik va lingvodidaktik paradigmalar ichida yetakchi o'rinni egallab bormoqda. Ayniqsa, tarjima kompetensiyasini bosqichma-bosqich shakllantirishga qaratilgan PACTE Group tomonidan ishlab chiqilgan model bu yo'nalishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ispaniyalik tadqiqotchilar guruhi PACTE (Process of Acquisition of Translation Competence and Evaluation), Barselona universiteti qoshida olib borilgan izlanishlar asosida 2005-yilda tarjimonning tarjima kompetensiyasi quyidagi asosiy komponentlar orqali aniqlagan:

1. Lingvistik kompetensiya — tarjimonning ona va tarjima qilinayotgan tillarda fonologik, grammatik, semantik, pragmatik bilimlariga asoslanadi. Tarjimon nafaqat soʻz boyligiga, balki sintaktik tuzilmalarni moslashtira olish, konnotatsiyani anglash va nutq ohangini toʻgʻri ifodalay olish salohiyatiga ega boʻlishi kerak.

2. Tekstologik kompetensiya (textual competence) — matn tipologiyasi, janr xususiyatlari, diskursiv struktura va matn koherensiyasini tushunish bilan bogʻliq. Tarjimonlar turli matn formatlarida ishlay olishlari, masalan, huquqiy hujjat, ilmiy maqola yoki tibbiy yoʻriqnoma boʻlishidan qatʼi nazar, matn tuzilishini saqlagan holda tarjimani amalga oshirishlari lozim.

3. Kasbiy-sohaviy kompetensiya (subject-field or thematic competence) — maʼlum bir soha: tibbiyot, texnika, iqtisod, huquq kabi yoʻnalishlar doirasida maxsus bilimlarga ega boʻlishni talab qiladi. Tarjimon terminologik bazani chuqur bilishi, normativ atamalarni toʻgʻri qoʻllay olishi va kasbiy diskursni anglab yetishi zarur.

4. Madaniy kompetensiya (bicultural competence) — tarjimon ikki madaniyat manba va maqsadli til kontekstini, ijtimoiy, diniy, axloqiy va tarixiy jihatlarni anglay olishi zarur. Bu madaniyatlararo tafovutlarni toʻgʻri baholash, mos ekvivalentlarni tanlash, nozik konnotatsiyalardan qochish kabi masalalarda muhim rol oʻynaydi.

5. Strategik kompetensiya – muammoni hal qilishga yoʻnaltirilgan: tarjima jarayonida yuzaga kelgan lingvistik, kontekstual yoki texnik muammolarni aniqlash va ularni samarali yechish strategiyalarini ishlab chiqish qobiliyatini anglatadi. PACTE Group taʼrificha, strategik kompetensiya tarjima jarayonining boshqaruv markazi boʻlib, boshqa barcha kompetensiyalarni faollashtiradi, muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi [PACTE Group 2005].

Demak, mazkur koʻp bosqichli kompetensiyaviy yondashuv tarjima taʼlimida individual qobiliyatlarni tizimli ravishda shakllantirishga yordam beradi. U nafaqat bilim berishga, balki tarjimonni real kasbiy vaziyatlarga tayyorlashga xizmat qiladi. Bu model zamonaviy tarjima taʼlimining ilmiy-metodik asosiga aylangan boʻlib, uni Oʻzbekiston oliy taʼlim muassasalari tajribasida qoʻllash dolzarbdir.

Xulosa va takliflar

Mazkur tadqiqot natijalari oʻzining ilmiy va amaliy jihatlari bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Avvalo, ilmiy nuqtayi nazardan, sohaga oid tarjimonlarni tayyorlash jarayonida lingvodidaktik yondashuvni axborot resurslari asosida tadqiq etish orqali tarjima pedagogikasining nazariy asoslari kengaytirildi. Tadqiqot doirasida leksik minimumni aniqlash, kasbiy yoʻnaltirilgan matnlar bilan ishlash, interaktiv uslublar va raqamli platformalarni integratsiyalashga doir metodik yechimlar ishlab chiqildi. Bu holat tarjima nazariyasi va didaktikasida yangi ilmiy qirralarni ochib berdi hamda sohaga ixtisoslashgan tarjimonlarni tayyorlashda qoʻllanilishi mumkin boʻlgan lingvodidaktik konsepsiya sifatida asoslandi.

Amaliy jihatdan esa tadqiqot natijalari tarjimonlarni tayyorlash jarayonida oʻquv dasturlari, darsliklar, oʻquv qoʻllanmalar va elektron platformalarni yaratishda samarali qoʻllanilishi mumkin. Sohaviy

tarjimonlar uchun ishlab chiqilgan mashqlar tizimi va interaktiv materiallar oliy ta'lim muassasalari hamda malaka oshirish markazlarida tatbiq etilishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, axborot resurslaridan foydalanishga asoslangan yondashuv tarjimonlarni tayyorlash jarayonida raqamli kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi, natijada ular amaliy faoliyatda tezkor va samarali ishlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar sohaga oid tarjima kurslari va maxsus modul fanlarini o'qitishda ham amaliy foydalanish imkonini beradi. Umuman olganda, ushbu tadqiqot sohaga oid ilmiy-metodik bazani boyitadi va O'zbekiston ta'lim tizimida sohaga ixtisoslashgan tarjimonlarni tayyorlash sifatini oshirishga bevosita xizmat qiladi.

Yuqorida guvohi bo'lganimizdek, sohaviy tarjima – murakkab, ko'p darajali va yuksak mas'uliyat talab qiluvchi faoliyat turi bo'lib, uning o'qitilishi umumiy til ta'limidan tubdan farq qiladi. Lingvodidaktik asoslangan, kontekstual, terminologik va texnologik yondashuvlarga asoslangan ta'lim modeli tarjimonni real kasbiy vazifalarga tayyorlaydi. Ko'p bosqichli kompetensiyaviy yondashuv tarjima ta'limida individual qobiliyatlarni tizimli ravishda shakllantirishga yordam beradi. U nafaqat bilim berishga, balki tarjimonni real kasbiy vaziyatlarga tayyorlashga xizmat qiladi. Mazkur model asosida shakllantirilgan tarjima kompetensiyasi tarjimonning til, madaniyat, sohaga oid bilimlar va strategik yechimlar asosida samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Ayniqsa, lingvistik, madaniy, kasbiy va strategik kompetensiyalarning uzviy integratsiyasi tarjima sifati va funksional yaroqliligini oshirishda hal qiluvchi omilga aylanadi. Bu esa O'zbekistonda sohaviy mutaxassislar tayyorlash tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishda muhim qadamlardan biridir.

Sohaviy tarjima bugungi globallashtirish jamiyatida axborot aylanishining asosiy vositasi sifatida yangicha pedagogik, lingvistik va texnologik yondashuvlarni talab qiluvchi murakkab va ko'p qatlamli faoliyat turi ekanligi bilan ajralib turadi. Ushbu bo'limda amalga oshirilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, sohaviy tarjima umumiy tarjimadan terminologik aniqlik, kontekstga sodiqlik va maqsadga muvofiqlik tamoyillari bilan tubdan farq qiladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ilgari surilgan nazariy qarashlar — M. T. Cabréning terminologik aniqlik konsepsiyasi, H. J. Vermeerning funksionalistik (Skopos) nazariyasi, D. Gilening kommunikativ-pragmatik yondashuvi hamda A. Neubertning bilimlararo adaptatsiya modeli — zamonaviy sohaviy tarjimaning ilmiy metodologik poydevorini tashkil etadi. Ayniqsa, *kasbiy yo'naltirilganlik, kontekstual asoslanganlik, terminologik yondashuv, texnologik tayyorgarlik va ko'p bosqichli kompetensiyaviy yondashuv* kabi didaktik tamoyillar bugungi tarjima ta'limining asosiy vektorlarini belgilab beradi.

Shuningdek, PACTE Group tomonidan ishlab chiqilgan tarjima kompetensiyasi modeli sohaviy tarjimonni shakllantirishda bosqichma-bosqich yondashuvning afzalliklarini namoyon etadi. U tarjimonning lingvistik, tekstologik, kasbiy, madaniy va strategik kompetensiyalarini uyg'un holda rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, tarjima jarayonida yuqori sifat va funksional yaroqlilikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, o'zbek olimlari Sh.S. Safarov, D.M. Xasanboyeva, S.J. Atiyazov, S.S. Jumamuratova, B. Elov va boshqalar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar milliy kontekstda sohaviy tarjima nazariyasini chuqurlashtirish va o'qitish metodikasini takomillashtirishga sezilarli hissa qo'shmoqda.

Umuman olganda, ushbu maqolaning asosiy ilmiy-metodik xulosasi shundaki, sohaviy tarjima faqat til o'zgarishlarini emas, balki terminologik aniqlik, kontekstual moslashuv, madaniyatlararo tafakkur va texnologik malakalarni uyg'unlashtiruvchi ko'p komponentli kompetensiyani talab etadi. Bu esa uni o'qitishda maxsus strategiyalar, zamonaviy texnologiyalar va funksionalist metodologiyalarga asoslangan yondashuvlarni joriy qilish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Atiyazov S.J., Jumamuratova S.S. Elektron lingvodidaktika – innovatsion ta'limning muhim unsuri sifatida. // Развитие лингвистики и литературоведения и образовательных технологий в эпоху глобализации. — 2022. — № 1 (1). — В. 319-321.
- Austermühl F. *Electronic Tools for Translators*. — London: Routledge, 2001. — 250 p.
- Bowker L. *Computer-Aided Translation Technology: A Practical Introduction*. — Ottawa: University of Ottawa Press, 2002. — 198 p.
- Byrne J. *Technical Translation: Usability Strategies for Translating Technical Documents*. — Berlin: Springer, 2006. — 238 p.
- Cabré M.T. *Terminology: Theory, Methods and Applications*. — Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 1999. — 248 p.
- Elov B., Raupova L., Abjalova M. O'zbek tilining ta'limiy korpusi va uning imkoniyatlari. *Filologiya masalalari*, — 2021. №4, 45-5.
- Gile D. *Basic Concepts and Models for Interpreter and Translator Training*. — Amsterdam: John Benjamins, 2009. — 278 p.
- Montalt V., González I. *Specialized Translation: A Multidisciplinary Approach*. — Routledge, 2014. — 256 p.
- Neubert A. *Text and Translation*. — Leipzig: Enzyklopädie Verlag, 1985. — 192 p.
- Newmark, P. *A Textbook of Translation*. — New York: Prentice Hall, 1988. — 292 p.
- Nord C. *Translating as a Purposeful Activity: Functionalist Approaches Explained*. — Manchester: St. Jerome Publishing, 1997. — 128 p.
- PACTE Group. *Investigating Translation Competence: Conceptual and Methodological Issues* // *Meta: Translators' Journal*. — 2005. — Vol. 50. — № 2. — pp. 609–619.
- Safarov Sh.S. *Tarjima nazariyasi asoslari*. — Toshkent: Akademnashr, 2016. — 240 b.
- Ubaydullaeva M.M., Vohidova D.K. *Sohaviy tarjimada terminologik yondashuv*. — Toshkent, 2015. — 210 b.
- Vermeer H.J. *Skopos and Commission in Translational Action* // Chesterman A. (ed.). *Readings in Translation Theory*. — Helsinki: Oy Finn Lectura Ab, 1989. — pp. 173–187.

Xasanboyeva D.M. Tarjima ta'limida lingvodidaktik yondashuvlar. — Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2022. — 156 b.

References

- Atiyazov, S. J., & Jumamuratova, S. S. (2022). *Elektron lingvodidaktika – innovatsion ta'limning muhim unsuri sifatida* (Electronic linguodidactics as an important element of innovative education). No. 1 (1), 319–321. (In Uzb.)
- Austermühl, F. (2001). *Electronic Tools for Translators*. London: Routledge.
- Bowker, L. (2002). *Computer-Aided Translation Technology: A Practical Introduction*. Ottawa: University of Ottawa Press.
- Byrne, J. (2006). *Technical Translation: Usability Strategies for Translating Technical Documents*. Berlin: Springer.
- Cabré, M. T. (1999). *Terminology: Theory, Methods and Applications*. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company.
- Elov, B., Raupova, L., & Abjalova, M. (2021). *Filologiya masalalari*, No. 4, 45–51. (In Uzb.)
- Gile, D. (2009). *Basic Concepts and Models for Interpreter and Translator Training*. Amsterdam: John Benjamins.
- Montalt, V., & González, I. (2014). *Specialized Translation: A Multidisciplinary Approach*. London: Routledge.
- Neubert, A. (1985). *Text and Translation*. Leipzig: Enzyklopädie Verlag.
- Newmark, P. (1988). *A Textbook of Translation*. New York: Prentice Hall.
- Nord, C. (1997). *Translating as a Purposeful Activity: Functionalist Approaches Explained*. Manchester: St. Jerome Publishing.
- PACTE Group. (2005). *Investigating translation competence: Conceptual and methodological issues*. *Meta: Translators' Journal*, 50 (2), 609–619. Available at: <https://doi.org/10.7202/010531ar>
- Safarov, Sh. S. (2016). *Tarjima nazariyasi asoslari* (Fundamentals of translation theory). Tashkent: Akademnashr. (In Uzb.)
- Ubaydullaeva, M. M., & Vohidova, D. K. (2015). *Sohaviy tarjimada terminologik yondashuv* (Terminological approach in specialized translation). Tashkent. (In Uzb.)
- Vermeer, H. J. (1989). *Skopos and commission in translational action*. In A. Chesterman (Ed.), *Readings in Translation Theory* (pp. 173–187). Helsinki: Oy Finn Lectoria Ab.
- Xasanboyeva, D. M. (2022). *Tarjima ta'limida lingvodidaktik yondashuvlar* (Linguodidactic approaches in translation education). Tashkent: Fan va texnologiya nashriyoti. (In Uzb.)